

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

MUSURMANKULOVA SHAXLO AXMEDOVNA

**GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MURAKKAB
RELYEFLI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDA NISHABLIKNI
BAHOLASH VA YER TUZISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.10 – “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Musurmankulova Shaxlo Axmedovna

Geoaxborot texnologiyalari asosida murakkab relyefli qishloq xo‘jaligi yerlarida nishablikni baholash va yer tuzish usullarini takomillashtirish..... 3

Мусурманкулова Шахло Ахмедовна

Совершенствование методов оценки уклона и землеустройства на сельскохозяйственных землях сложного рельефа на основе геоинформационных технологий 21

Musurmankulova Shakhlo Akhmedovna

Improvement of methods for assessing slope and land management on agricultural lands of complex relief based on geoinformation technologies..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA TUZILGAN FALSAFA DOKTORI (PhD)
ILMIY DARAJASINI BERUVCHI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

“O‘ZDAVYERLOYIHA” DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

MUSURMANKULOVA SHAXLO AXMEDOVNA

**GEOAXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MURAKKAB
RELYEFLI QISHLOQ XO‘JALIGI YERLARIDA NISHABLIKNI
BAHOLASH VA YER TUZISH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

06.01.10 – “Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi”

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.1.PhD/Qx1940 raqam bilan ro'yxatga olingan

Doktorlik dissertatsiyasi "O'zdavyerloyiha" davlat-ilmiy loyihalsh institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Inamov Aziz Nizamovich
Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Avezbayev Sadulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qurvantoyev Raxmontoy
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Unversitet ko'chasi 2-uy, Tel.: (+99871) 260-48-00; faks: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 556803 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Unversitet ko'chasi, 2-uy. Toshkent davlat agrar universiteti Axborot-resurs markazi. Tel.: (+99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 5-avgust kuni tarqatildi.
(2026-yil 5-avgustdagi 24-raqamli reestr bayonnomasi).



S.G'.Boboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash raisi, professor.

A.A.Qurbonov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.

A.A.Iminov
Bir martalik ilmiy kengash qoshidagi bir martalik ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertasiyasi annotasiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo bo'yicha umumiy yaylovlar maydoni 3.38 mlrd. gektarni, lalmi yerlar esa 1.3 mlrd. gektarni tashkil etib¹, ushbu maydonlarning murakkab relyefga ega bo'lgan qismidan yaylov chorvachiligi, pichanzorlar, terassa dehqonchiligi, bog'dorchilik hamda lalmi yerlar sifatida foydalanilib kelinmoqda. Bugungi kunda Xitoy, Yaponiya, Vyetnam, Germaniya, Hindiston kabi rivojlangan davlatlarda murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida geoaxborot texnologiyalari orqali yer tuzish ishlari yuqori aniqlikda olib borilib, murakkab relyefli maydonlarni barqaror boshqarish hamda ulardan samarali foydalanish, relyefi murakkab hududlarda qishloq xo'jaligi yerlarini optimallashtirish, yer tuzish loyihalarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda.

Dunyoda eroziya, degradatsiya, suv resurslarining cheklanganligi, sho'rlanish, urbanizatsiya kabi muammolar ko'plab mamlakatlarda haligacha dolzarb masalalardan bo'lib qolmoqda. Shu bois, yuqori aniqlikdagi raqamli balandlik modellari (DEM), geoaxborot texnologiyalari, masofadan zondlash ma'lumotlari, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yer tuzish ishlarini samarali rejalashtirish va amalga oshirish, nishablik hamda relyefni aniqlash borasida dunyo miqyosida katta hajmdagi tadqiqotlar olib borilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki va boshqa xalqaro miqyosdagi tashkilotlar murakkab relyefli maydonlarni qishloq xo'jaligida rivojlantirish, suv va tuproq eroziyalarini oldini olish, yer boshqaruvida ekologik barqarorlikni ta'minlash va ushbu maydonlarda monitoring tizimlarini joriy etishni qo'llab quvvatlanmoqda.

Respublikamizda 2026 yil 1-yanvar holatiga ko'ra yaylov hamda pichanzorlarning umumiy maydoni 21 255,3 ming gektar, lalmi yerlar esa 768,3 ming gektarni tashkil etib, bu ikki turdagi maydonlar birgalikda mamlakat hududining 49 foizini egallaydi². Qishloq xo'jaligida murakkab relyefli maydonlar asosan aynan shu yaylov va lalmi yerlar hududiga to'g'ri keladi. Biroq, ularni o'zlashtirish, boshqarish va samarali foydalanish nuqtayi nazaridan qator qiyinchiliklar mavjud. Bugungi kunda bu turdagi relyefi murakkab qishloq xo'jaligi maydonlaridan maqsadli hamda oqilona foydalanish muammosi mamlakatimiz qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi uchun muhim hisoblanmoqda. Bu kabi maydonlarning yer tuzish loyiholari ko'plab tashkiliy hamda texnik masalalarni paydo qiladi, bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligi maydonlaridan samarali foydalanish ko'rsatgichini pasaytiradi. Eroziya hamda boshqa atrof-muhit xavflarning kuchayishiga sabab bo'ladi. Murakkab relyef sharoitlarida joylashgan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ularni maqsadli boshqarish masalalari respublika agrar siyosatining dolzarb yo'nalishlaridan biri sanaladi. Bunday hududlarda yer tuzish ishlarini tashkil etish o'ziga xos tashkiliy hamda texnik murakkabliklar bilan tavsiflanadi. Mazkur holat yer maydonlaridan foydalanish natijadorligining kamayishiga, shuningdek, eroziya va boshqa ekologik

¹ <https://ourworldindata.org/grapher/global-pasture>

² O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati bo'yicha milliy yer hisoboti haqidagi ma'lumotlar to'plami (2026 yil 1 yanvar holatiga)

xavf-xatarlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Zamonaviy masofadan zondlash, geoinformatsion texnologiyalar va raqamli balandlik modellari yordamida relyef va yer nishabligini aniqlash imkoniyatlari kengayib bormoqda. Shu bilan birga, murakkab relyefli hududlarda yer tuzish loyihalarini yuqori aniqlikda va tizimli ravishda ishlab chiqish uchun yangi yondashuv va metodologiyalarni yaratish zarurati mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq qabul qilingan "Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish konsepsiyasi"da³ va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020-yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori⁴, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 14-yanvardagi №-22-son "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarda monitoring ishlarini amalga oshirish, yerlarni muhofaza qilish va yer tuzish faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" qarori⁵, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PF-24-son "Yaylovlarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni⁶ hamda yer resurslaridan foydalanish va muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ustuvor vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qildi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot - kommunikasiya texnologiyalarini rivojlantirish", V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarning nishabligini aniqlash va baholash masalalari bo'yicha bir qator xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jahon miqyosida masofadan zondlash va geoinformatsion texnologiyalar asosida relyef tahlili, raqamli balandlik modellari (DEM)dan foydalanish hamda nishablik darajasini aniqlash metodologiyasi yuzasidan J. Burrough, R.Mc.Donnell, M.Wilson, J. Jensen kabi olimlarning ishlari muhim o'rin egallaydi. Ular tomonidan GAT va masofadan zondlash orqali relyef parametrlarini modellashtirish usullari ishlab chiqilgan. O'zbekistonda esa bu yo'nalishda B.A.Xolmatov, Z.A.Asqarov, M.Tillayev, Sh.Jo'rayev, A.Yusupov, A.N.Inamov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari mavjud bo'lib, ular tomonidan qishloq xo'jaligi yerlarining bonitirovkasi, ekinlarni joylashtirish, eroziyaga qarshi yer tuzish choralari, landshaftga moslashtirilgan loyihalash yondashuvlari ishlab chiqilgan. Qishloq xo'jaligida yer tuzishni

³ <https://lex.uz/uz/docs/-4378526>

⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-4714632>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022-yil 14-yanvardagi №-22-son qarori

⁶ <https://lex.uz/en/docs/-6386439?ONDATE=05.06.2023>

loyihalash bo'yicha xorijlik olimlardan S.Volkov, S.Galchenko, A.Jelyaskov va boshqalarning, shuningdek mamlakatimizda esa mazkur muammo bo'yicha S.Avezbayev, R.A.Turayev, B.N.Inamov, O.O'.Davronov, R.N.Sharopov, Sh.K.Narbayev kabi olimlar tadqiqotlar olib borishgan. Shunga qaramasdan, respublikamizda qishloq xo'jaligining murakkab relyefli yerlarida yer tuzish ishlarini takomillashtirish bo'yicha yetarli darajada ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining 2023 – 2026 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan bo'lib, "Geoaxborot texnologiyalari yordamida murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida nishablikni baholash va yer tuzish usullarini takomillashtirish" mavzusi doirasida relyefi murakkab qishloq xo'jaligi maydonlarida yer tuzish ishlarini takomillashtirishga qaratilgan.

Tadqiqotning maqsadi: murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida relyef nishabligini aniqlash va baholash hamda shu asosda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishning ilmiy-uslubiy mexanizmini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- murakkab relyefli qishloq xo'jaligi maydonlarida relyef nishabligini yuqori aniqlikda hisoblash algoritmini ishlab chiqish;
- murakkab relyefli hududlarda nishablikni geovizuallashtirish imkonini beruvchi "Perfect Slope" interaktiv veb-platformasini ishlab chiqish;
- relyef nishabligini aniqlashda o'rtacha kvadratik xatolik ko'rsatkichlari asosida turli nishablik sinflari ($0-5^{\circ}$, $5-10^{\circ}$, $10-30^{\circ}$, $30-60^{\circ}$) uchun o'lchov xatoliklarini asoslab berish;
- murakkab relyefga ega qishloq xo'jaligi maydonlarida yer tuzish loyiha mexanizmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Toshkent viloyati Ohangaron tumanining murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida masofadan zondlash va geoaxborot texnologiyalari asosida nishablikni aniqlash, tahlil qilish va shu asosda tizimli yer tuzish loyihasining mexanizimini ishlab chiqish jarayoni hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqot jarayonida statistik tahlil (korrelyatsion va regression tahlil, dispersion tahlil), GAT asosida geovizuallashtirish, veb-dasturlash, monografik surishtiruv va kuzatuv, masofadan zondlash (haversine formulasi asosida), mantiqiy va abstrakt fikrlash hamda matematik modellashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

masofadan zondlash ma'lumotlari va raqamli balandlik modeli asosida murakkab relyefli qishloq xo'jaligi maydonlarining nishablik qiymatlarini korrelyatsion bog'liqlikni hisobga olgan holda yuqori aniqlikda aniqlash algoritmi ishlab chiqilgan;

murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarining ma'lumotlarini (ma'lumotlarni to'plash ↔ yuklab olish ↔ tahlil qilish [contour, slope, image classification, Extract by mask funksiyalari] ↔ dasturga o'lchov xatoliklarini kiritish) ketma ketligida joylashtirish zarurligi ilmiy asoslab berilgan;

qishloq xo'jaligining murakkab relyefli yerlarida nishablik sinflari (0–5°, 5–10°, 10–30°, 30–60°) uchun o'lchov xatoliklari o'rtacha kvadratik xatolik usuli asosida mos ravishda 1,01°, 1,85°, 5,83° va 8,08° ekani aniqlangan.

murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida tizimli va bosqichli yondashuv asosida yer tuzish loyihasini ishlab chiqish mexanizmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Ohangaron tumanining qishloq xo'jaligiga yaroqli maydonlari nishablik sinflariga (0–5°, 5–10°, 10–30°, 30–60°) bo'linib tahlil qilindi hamda har bir sinf bo'yicha optimal foydalanish tavsiyalari ishlab chiqilgan;

murakkab relyefga ega qishloq xo'jaligi yerlarida tizimli hamda bosqichma-bosqich yondashuvga asoslangan yer tuzish loyihasini ishlab chiqishning takomillashgan mexanizmi ishlab chiqilgan;

Ohangaron tumani bo'yicha raqamli balandlik modeli DEM hamda nishablik elektron xaritalari ishlab chiqilgan;

Ohangaron tumanining yer usti nishabligini masofadan zondlash ma'lumotlari yordamida 1.2 gradus xatoligacha aniqlik bilan baholovchi, nishablik sinflariga asoslangan qishloq xo'jaligi uchun mos yerlarni tanlash imkonini beruvchi "Perfect slope" nomli interaktiv veb platformasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalarning ishonchliligi Davlat statistika qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining rasmiy ma'lumotlariga tayanilganligi, ochiq axborot manbalaridan olingan masofadan zondlash ma'lumotlaridan foydalanilganligi, statistik tahlil va matematik modellash usullarining ilmiy asoslanganligi, shuningdek, tadqiqot jarayonida zamonaviy geoaxborot texnologiyalarining keng qo'llanilganligi bilan ta'minlangan. Shuningdek, ishlab chiqilgan algoritm va taklif etilgan yechimlarning amaliy sharoitlarda sinovdan o'tkazilgani hamda olingan natijalarning mavjud ilmiy ishlarga qiyosiy tahlil qilinganligi tadqiqot xulosalarining ishonchliligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati: Mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyati qishloq xo'jaligi yerlarining murakkab relyef sharoitlarida nishablik ko'rsatkichlarini aniqlash va baholashning ilmiy-uslubiy asoslari masofadan zondlash ma'lumotlari hamda geoaxborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali takomillashtirilganligi bilan ifodalanadi. Tadqiqotda raqamli balandlik modellari va statistik tahlil usullaridan foydalangan holda nishablikni aniqlash aniqligini oshiruvchi algoritm taklif etildi hamda turli nishablik sinflari bo'yicha o'lchov xatoliklari ilmiy jihatdan asoslandi. Shuningdek, murakkab relyef sharoitida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni rejalashtirishga yo'naltirilgan, tizimli va bosqichma-bosqich yondashuvga asoslangan yer tuzish loyihasini ishlab chiqish mexanizmi takomillashtirildi. Olingan ilmiy natijalar qishloq xo'jaligi yerlarini baholash, yer tuzish va agrogeoinformatika sohalarida nazariy bilimlarni kengaytiradi.

Dissertatsiya ishining amaliy ahamiyati murakkab relyefli qishloq xo'jaligida mavjud yer maydonlaridan samarali va maqsadli foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan texnologik yechimlar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan raqamli balandlik modeli, nishablikka asoslangan elektron xaritalar hamda "Perfect slope" interaktiv veb-platformati qishloq xo'jaligi yerlarini nishablik sinflari bo'yicha baholash, ekinlarni joylashtirish, eroziya xavfini kamaytirish va agrotexnik tadbirlarni aniq rejalashtirish imkonini berishi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Geoaxborot texnologiyalari asosida relyefi murakkab hududlarning yer tuzish ishlarini takomillashtirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

Toshkent viloyati Ohangaron tumanining qishloq xo'jaligiga yaroqli hududlar nishablik darajalariga ajratilib, har bir nishablik toifasiga mos holda yer resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan hamda Ohangaron tuman qishloq xo'jaligi bo'limida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-761-son ma'lumotnomasi). Natijada, Ohangaron tumanining murakkab relyefli maydonlaridan samarali foydalanish imkoniyatini yaratgan.

murakkab relyefga ega qishloq xo'jaligi yerlari uchun tizimli va bosqichli yondashuvga asoslangan yer tuzish loyihasini ishlab chiqishning yangilangan va takomillashtirilgan mexanizmi ishlab chiqilgan va "Buviniso olima" fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-761-son ma'lumotnomasi). Natijada, yer resurslaridan barqaror foydalanish, eroziya xavfini baholash hamda iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash imkoniyati yaratilgan.

Ohangaron tumani uchun raqamli relyef modeli (DEM) va nishablikka asoslangan tematik elektron xaritalar ishlab chiqilgan hamda Toshkent viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-761-son ma'lumotnomasi). Natijada agrotexnik va meliorativ ishlarni aniq rejalashtirish imkoniyati yaratilgan. Ushbu xaritalar balandlik, nishablik, suv oqim yo'nalishlarini belgilash hamda eroziya xavfi mavjud hududlarni aniqlashga xizmat qiladi.

masofadan zondlash texnologiyalari yordamida Ohangaron tumanining yer sathi qoplamasini 1.2° xatolikgacha baholay oladigan, nishablik mezonlariga asoslangan holda qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni tanlash imkonini beruvchi "Perfect slope" nomli interaktiv veb-platforma ishlab chiqilgan va Ohangaron tuman qishloq xo'jaligi bo'limida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligining 2025 yil 11-noyabrdagi 05/05-04-761-son ma'lumotnomasi). Natijada masofadan turib Ohangaron tumanining relyefi va yer qoplamasining aniq raqamli tahlili bo'yicha kompleks ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot doirasida erishilgan ilmiy natijalar "O'zdavyerloyiha" davlat ilmiy-loyihalash institutining ilmiy-texnik kengashi yig'ilishlarida muhokama qilinib, ijobiy baholangan. Shuningdek, tadqiqotning asosiy natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-

amaliy anjumanlarda ma'ruza ko'rinishida taqdim etilgan. Dissertatsiya ishi ham institut ilmiy-texnik kengashida belgilangan tartibda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Ularning tarkibiga 1 ta dasturiy guvohnoma, 1 ta uslubiy tavsiyanoma hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda chop etilgan 6 ta maqola kiradi. Mazkur maqolalarning 5 tasi respublika, 1 tasi esa xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya kirish, uchta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati hamda ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchiligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etish ro'yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Murakkab relyefli hududlarda yer tuzish ishlarining nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida yer tuzish ishlarini olib borishning nazariy ahamiyati qishloq xo'jaligi yerlarning murakkab relyefli maydonlaridan foydalanish asoslari, murakkab relyefli maydonlardan samarali foydalanishga qaratilgan xorij tajribasi qisqacha qiyosiy ma'lumotlar tahlili keltirilgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, respublikamiz hududining bir qismi tog'li va adirli hududlardan iborat bo'lib, bu yerlar tabiiy iqlim sharoitining xilma-xilligi, relyefning murakkabligi, tuproq-iqlim sharoitlarining notekisligi bilan ajralib turadi. Bunday sharoitlarda yer maydonlaridan foydalanish o'ziga xos yondashuvni, ilmiy asoslangan yer tuzish tadbirlarini va kompleks agrotexnik chora-tadbirlarni talab qiladi.

Murakkab relyefli hududlar ayniqsa, tog' oldi va adir mintaqalari chorvachilik, bog'dorchilik va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun katta salohiyatga ega. O'zbekiston Respublikasining 2026 yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami qishloq xo'jaligi yerlari 26880,3 ming gektarni tashkil etsa, shundan 21255,3 ming gektari yaylov va pichanzorlar hududlariga to'g'ri keladi. Bu esa jami qishloq xo'jaligi yerlarining 81.1 foizi yaylov va pichanzorlar yerlariga to'g'ri kelishini ko'rsatadi. Ma'lumki, yaylov yerlari asosan murakkab relyeflardan tashkil topgan va bu yerlardan asosan chorva mollarini boqish maqsadida foydalaniladi. Bunday relyefi murakkab maydonlardan qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish maqsadida foydalanish ancha katta samara berishi xorijiy davlatlarda o'z isbotini topgan.

Murakkab relyefli maydonlarning yildan-yilga ortib borayotgan foydalanish ko'rsatkichi bu yerlarning salohiyatini ochish bo'yicha amalga oshirilayotgan izlanishlar va loyihalarning ijobiy natijasidir. Shuning uchun murakkab relyefli hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyatini samarali yuritish uchun ilmiy asoslangan landshaftni boshqarish tizimlari, jumladan terassalash, tuproqni muhofaza qilish va suvni boshqarish texnologiyalarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektining yer tuzish ishlarini yuritishda geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida murakkab relyeflarning tarqalishi tavsifi va geoaxborot texnologiyalaridan foydalanish usullari, yer tuzish ishlaridagi ahamiyati hamda hozirgi holati keltirilgan.



1-rasm. Toshkent viloyatida yaylov hamda lalmi ekin yerlarining tumanlar bo'yicha tarqalishi.

1-rasmda ko'rishimiz mumkinki Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida – 1419 ga yaylov hamda 125 ga lalmi, Ohangaron tumanida – 76145 ga yaylov hamda 10076 ga lalmi, Bekobod tumanida – 4637 ga yaylov hamda 842 ga lalmi, Bo'stonliq tumanida – 39253 ga yaylov hamda 5443 ga lalmi, Bo'ka tumanida – 5316 ga yaylov hamda 1184 ga lalmi, Quyi Chirchiq tumanida – 178 ga yaylov, Zangiota tumanida – 213 ga yaylov hamda 29 ga lalmi, Yuqori Chirchiq tumanida – 4200 ga yaylov hamda 1679 ga lalmi, Qibray tumanida – 817 ga yaylov hamda 600 ga lalmi yerlari mavjud.


Murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida asosan lalmikor yerlar sifatida foydalaniladi. Lalmikor yerlarda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish faqat tuproq qatlamlaridagi yog'inlar hisobiga yig'ilgan namlik evaziga yetishtirilishini hisobga olib, yillik yog'in miqdori o'rtacha 200 mm dan oshadigan yerlardagina lalmikor ekinlar joylashtiriladi.

1-jadval

**Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi yer toifasida murakkab relyefli
maydonlar tarqalgan yer turlari**

Yillar	Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi yer toifasida murakkab relyefli maydonlar tarqalgan yer turlari		
	Pichanzor va yaylovlar ming.ga	Lalmi ekin yerlar ming.ga	Jami
2015	200	32.1	232.1
2016	202.6	31.6	234.2
2017	202.6	31.6	234.2
2018	201.9	31.4	233.3
2019	201.7	30.6	232.3
2020	207.5	30.7	238.2
2021	207.7	30.1	237.8
2022	208	30.3	238.3
2023	192.8	30	222.8
2024	191.3	28.6	219.9
2025	191.2	28.1	219.3


Respublika hududining katta qismini pichanzor va yaylovlar tashkil qiladi. Bu yerlar chorvachilikni rivojlantirish uchun asosiy ozuqa bazasi bo‘lib hisoblanadi.



2-rasm. Toshkent viloyatining nishabliklar bo‘yicha tarqalishi

2-rasmda Toshkent viloyati hududining nishablik darajasiga ko‘ra sinflarga bo‘lingan holatini aks ettiradi. Hududdagi nishabliklar 5 ta sinfga bo‘lingan bo‘lib, ular turli ranglarda ko‘rsatilgan. Nishabligi 0° dan 5° gacha bo‘lgan och yashil rangda

tasvirlangan maydon 708102 gektarni tashkil etib, asosan hududning g'arbiy va janubi-g'arbiy qismida joylashgan. Bu sinfdagi maydonlar tekis va eng kam nishablikka ega yerlar hisoblanib qishloq xo'jaligi, aholi punktlari, infratuzilma uchun eng qulay hududlardir. Nishabligi 5° dan 10° gacha bo'lgan qoramtir yashil rangda tasvirlangan maydon 109144 gektarni tashkil etib, hududning markaziy qismida keng tarqalgan. Bu sinfdagi maydonlar dehqonchilik hamda qurilish uchun qulay hisoblanadi. Nishabligi 10° dan 30° gacha bo'lgan to'q sariq rangda tasvirlangan yerlarning umumiy maydoni 469531 gektarni tashkil etib, xaritada eng katta maydonlardan birini egallagan. Nishabligi 30° dan 60° gacha bo'lgan och sariq rangda tasvirlangan yerlarning umumiy maydoni 231410 ga, 60° dan 80° gacha bo'lgan qizg'ish rangda tasvirlangan yerlarning umumiy maydoni esa 2320 gani tashkil etishi aniqlandi.



3-rasm. Toshkent viloyati yer usti qoplaminig holati


Aniqlangan ushbu ma'lumotlar yer tuzish ishlarini taklif qilishda, Toshkent viloyati yer usti qoplami haqidagi aniq ma'lumotlarni masofan turib olishga hamda monitoring qilib mavjud o'zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi uch qismga bo'lingan. **“Qishloq xo'jaligi yerlarida geoaxborot texnologiyalarini qo'llash orqali murakkab relyefli hududlarni nishabligini aniqlash usulini takomillashtirish”** deb nomlangan bo'limida relyefi murakkab hududlarni vizualizatsiya qilish, nishabligini aniqlash algoritimini takomillashtirish, masofadan zondlash va joyidagi o'lchov bilan statistik tahlil asosida GAT texnologiyalarni qo'llanilishi, nishab yerlarda yer tuzish loyihasini ishlab chiqish mexanizimini takomillashtirishdan iborat jarayonlar yoritilgan.

Hozirgi davrda geografik axborot tizimlari, masofadan zondlash texnologiyalari va raqamli relyef modellarining jadal rivojlanishi qishloq xo‘jaligi yerlarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni yuqori aniqlik va chuqur tahlil asosida o‘rganish imkonini yaratmoqda. Ayniqsa, murakkab relyefga ega hududlarda yer yuzasining morfometrik ko‘rsatkichlari, jumladan nishablik darajasini aniqlash va baholash, zamonaviy yer tuzish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur muammoni hal etish maqsadida ishlab chiqilgan “Perfect Slope” veb-platformasi Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi murakkab relyefli qishloq xo‘jaligi yerlarida nishablik darajasini masofadan turib 1.2° aniqlikgacha o‘lchash imkoniyatini taqdim etadi. Platformani yaratish jarayoni bir nechta bosqichlarda amalga oshirildi. Birinchi bosqich geofazoviy ma‘lumotlarni to‘plash va dastlabki tayyorlash. Tadqiqotning birinchi bosqichi Ohangaron tumani bo‘yicha geofazoviy (raster, vektor, PDF shaklidagi) ma‘lumotlarni to‘plashdan iborat bo‘ldi. Ma‘lumotlar tanlanayotganda quyidagi omillar inobatga olindi: Kosmik su‘ratlarning olingan sanasi va aniqligi; bulut qoplami 10 % dan oshmasligi, sun‘iy yo‘ldosh (masalan, Landsat, Sentinel)ning texnik parametrlari, foydalanilayotgan ma‘lumotlar to‘plamining izchilligi va aniqligi. Yuklab olingan ma‘lumotlar tadqiqot obyektlarining chegarasi, raqamli relyef modeli (DEM), yer yuzasi qoplami (land cover), iqlim, yog‘ingarchilik kabi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur ma‘lumotlar ArcGIS Pro 3.4.2 dasturiga yuklab olindi va tahlil qilishdan avval geometrik va atmosferik tuzatishlar amalga oshirildi.

1-“contour” funksiyasi. Ushbu jarayonda raqamli relyef modeli (Digital Elevation Model - DEM) asosida “Contour” funksiyasi qo‘llanildi. Ushbu funksiya tanlab olingan maydon bo‘yicha gorizontall izolinialarni (balandlik chiziqlarini) yaratadi. Natijada, har bir chiziq mos keluvchi hududning dengiz sathiga nisbatan balandligini aks ettiradi. Bu esa tadqiqot hududining umumiy relyef modulini tahlil qilishga, shuningdek, keyingi bosqichda nishablik darajasini aniqlash uchun zarur asosiy qatlamlardan biri hisoblanadi. 2-“slope” funksiyasi. (4-rasm)




4-rasm. Slope funksiyasida Ohangaron tumani nishabliklarini sinflarga bo‘linish jarayoni.

Tadqiqot hududining morfometrik tuzilmasini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida raqamli relyef modeli asosida "Slope" funksiyasi qo'llanildi. Ushbu funksiya yer yuzasi relyefining har bir pikseldagi nishablik darajasini burchak graduslarida ($^{\circ}$) hisoblab beradi, ya'ni relyef yuzasining gorizontaal sathga nisbatan qiyaligini aniqlaydi.

3- Yer usti qoplamini tahlil qilish funksiyasi. Tadqiqot doirasida tanlab olingan maydon yuzasining fizik-geografik holatini chuqur tahlil qilish maqsadida yer usti qoplamini aniqlash funksiyasi qo'llanildi. Ushbu tahlil hududda mavjud bo'lgan tabiiy va antropogen obyektlarni (masalan, bino-inshootlar, suv havzalari, o'rmonlar, ekin maydonlari, ochiq yerlari va boshqa elementlarni) aniqlash va tematik sinflarga ajratish imkonini beradi.

4- Yog'ingarchilik ma'lumotlarini integratsiya qilish. Tadqiqot jarayonida NASA POWER ma'lumotlari asosida yillik yog'ingarchilik miqdori ma'lumotlari ham xaritaga olingan. Bu ma'lumotlar TIFF formatida yuklab olindi va GAT tizimida ishlatildi. NASA POWER (Prediction of Worldwide Energy Resources) tizimi global iqlim ma'lumotlari va yog'ingarchilik o'lchovlarini taqdim etadi, bu esa qishloq xo'jaligi uchun yerlarning optimal sharoitlarini aniqlashda yordam beradi.

5- Hududlarni tanlab olish: "Extract by Mask" funksiyasi asosida hududiy chegaralash. Tadqiqot hududini aniqlashda bir nechta muhim tabiiy-geografik va ekologik mezonlar asosida tanlab olish ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonda ArcGIS Pro dasturining "Extract by Mask" funksiyasidan foydalanildi. Mazkur funksiyaning asosiy vazifasi - tadqiqot maqsadlariga mos keluvchi maydonlarni umumiy hududdan ajratib olishdir. Tanlash jarayonida quyidagi asosiy omillar inobatga olindi:



5-rasm. Masofadan aniqlangan koordinatalar va joyida olingan GPS nuqtalari o'rtasidagi bog'liqlik tahlili natijalari ($r = 0,9422$)

Aniqlangan 200 ta nuqtaning GPS koordinatalari va masofadan turib aniqlangan ma'lumotlar asosida nishablik qiymatlarini baholash jarayonida, ularning aniqligi va ishonchliligini tekshirish uchun bir qator statistik tahlillar amalga oshirildi. Ushbu tahlillar platformaning natijaviy va amaliy ahamiyatini

oshirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi va yer resurslarini boshqarishda to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun zarurdir. Aniqlangan 200 ta nuqta uchun quyidagi ma'lumotlar to'planadi:

- Masofadan turib aniqlangan koordinatalar (longitud, latitud, balandlik);
- Joyida olingan koordinatalar (longitud, latitud, balandlik);
- Hisoblangan nishablik qiymatlari (burchak va foiz);
- GPS nuqtalari orasidagi gorizont masofa va vertikal balandlik farqi.

Ma'lumotlar bir xil o'lcham va formatga keltirilgan, noaniqliklarni kamaytirish va tahlillarni osonlashtirish uchun raster va vektor qatlamlar birlashtirildi. Aniqlangan koordinatalar va nishablik qiymatlari orasidagi bog'liqlikni o'rganish maqsadida Pearson korrelatsiya koeffitsiyenti (r) hisoblandi. Bu koeffitsiyent quyidagilarni aniqlash imkonini beradi:

- Masofadan turib olingan ma'lumotlar va joyida olingan GPS koordinatalari orasidagi moslik darajasi;

- Nishablik qiymatlari va vertikal balandlik farqi orasidagi o'zaro bog'liqlik.

Natijalar ko'rsatdiki, masofadan turib aniqlangan nuqtalar bilan joyida olingan ma'lumotlar o'rtasida yuqori darajadagi korrelatsiya mavjud bo'lib, bu platformaning ishonchliligini tasdiqlaydi. Bunda korrelatsiya koeffitsiyenti $r \geq 0.85$ qiymatini tashkil etdi.

RMSE qiymati asl o'lchov birligida ifodalanadi, bu esa uni interpretatsiya qilishni osonlashtiradi. Quyida 0-5 gradusgacha, 5-10 gradusgacha, 10-30 gradusgacha va 30-60 gradusgacha bo'lgan sinflar uchun statistik tahlillar alohida amalga oshirildi. RMSE o'zaro bog'liq indikatorlar bilan birgalikda ishlatiladi (0-5 gradus qiyalikdagi qiymatlar uchun):

RMSE (Root mean square error) – O'rta kvadratik ildiz xatolik (O'KIX)

$$RMSE = \sqrt{1.01} = 1.01 \quad (1)$$

MSE (Mean Square Error) – o'rtacha kvadratik xato,

$$MSE = \frac{17.17}{17} = 1.01 \quad (2)$$

R² (Determination coefficient) – modelning tushuntiruvchi quvvati.

$$R^2 = 1 - \frac{\sum(X-Y)^2}{\sum(Y-\hat{Y})^2} = 1 - \frac{69.0724}{69.826} = 0.873 \quad (3)$$

Har bir nishablik sinfida bir nechta nuqtalarda o'lchovlar olib borilgan va ular orasidagi aniqlik MSE (Mean Squared Error), RMSE (Root Mean Squared Error) va R² (determinatsiya koeffitsienti) orqali baholandi. Yuqorida hisoblab chiqilgan natijalarni jadval ko'rinishiga keltirib olinadi.

2-jadval

Turli nishablik sinflari bo'yicha joyida va masofadan o'lchov qiymatlari orasidagi aniqlik ko'rsatkichlari (MSE, RMSE, R²).

Nishablik sinfi	Nuqtalar soni	MSE	RMSE	R ²
0°–5°	12	1.01	1.01	0.873
5°–10°	14	3.43	1.85	0.871
10°–30°	57	33.97	5.83	0.585
30°–60°	17	65.33	8.08	0.417

Yaratilgan elektron xaritalar hamda aniqlangan o'lov xatoliklaridan ko'rish mumkinki murakkab relyefli yerlarda yer tuzish ishlarini loyihalash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa avvalambor relyefi murakkab hududlarda yer tuzish loyihasini ishlab chiqish chora-tadbirlarini amalga oshirish lozim bo'ladi.


Nishab yerlar bilan ishlashda birinchi bosqich relyefni aniq o'rganish hisoblanadi. Bu relyef shakli, nishablik darajasi, yo'nalishi kabi omillarni o'z ichiga oladi. Nishablikni aniqlashning bir nechta turlari mavjud bo'lib, bularga masofadan zondlash (masalan, sun'iy yo'ldosh, dron) orqali relyefni aniqlash hamda dala sharoitida geodeziya yoki vizual kuzatuv asosida relyef qiymatini o'lchashlari kiradi. Bu bosqich yer eroziyasiga qarshi kurash strategiyalarini tanlashda asosiy rol o'ynaydi. Yuqoridagi chora-tadbirlardan kelib chiqib, nishab yerlarda yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda mavjud yondashuvlar asosan mahalliy relyefni hisobga olgan holda amalga oshirilgan bo'lib, ularning ko'pchiligi kompleks yondashuvga ega emas. Zamonaviy agroekologik va iqtisodiy talablar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish zaruriyati hamda yer degradatsiyasi va eroziya xavfining ortib borayotgani, ushbu sohada yangilangan, tizimli va integratsiyalashgan mexanizmni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Nishab yerlarda tuproq yuvilishining oldini olish uchun maxsus agrotexnik tadbirlar zarur. Misol uchun kontur bo'ylab ekish – nishablik yo'nalishiga emas, relyef konturlariga mos ravishda ekin ekish. Suv oqimini sekinlashtiruvchi tizimlar – valik, ariq kabi gidromeliorativ inshootlar orqali suv oqimini boshqarish. Mulchalash- o'simlik qoplami bilan yer sirtini yopish kabi bir necha turlari mavjud.

Almashlab ekish jarayon ekologik moslashtirish bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Almashlab ekish tadbiri yerlarning unumdorligini saqlash va eroziya xavfini kamaytirish uchun qo'llaniladi. Ushbu tadbirda har yili turli ekinlarni almashlab ekish, nitrogen (azot) to'plovchi (masalan, dukkakli) ekinlar bilan yerning holatini yaxshilash, ekin navlarini sharoitga qarab moslashtirib ekish kabi bir qancha usullari mavjud.

Biz tomonimizdan taklif etilayotgan murakkab relyefli maydonlarda xo'jalikda ichki yer tuzish mexanizimini asosiy 4 bosqichga bo'lganmiz. Birinchi bosqich boshlang'ich ma'lumotlarni tayyorlash va umumiy tahlil qilish hisoblanadi. Ushbu bosqichda nishab (ya'ni qiyalikdagi) yerlarning tabiiy-geografik va meliorativ holati o'rganiladi. Buning uchun asosiy tahlillar ya'ni topografik tahlilda - relyef shakllari, nishablik darajasi, balandlik farqlari, tuproq tahlilida - unumdorlik, mexanik tarkibi, iqlim sharoitlari tahlilida yog'ingarchilik miqdori, harorat, shamol yo'nalishi, gidrologik holat tahlilida suv obyektlari, yerosti suvlari va eroziya xavfi kabi omillar aniqlanadi. Natijada maydonning eroziyaga moyilligi va tabiiy imkoniyatlari baholanadi.

Ikkinchi bosqichda nishab yerlar uchun mos yerning xususiyatlariga qarab eng maqbul foydalanish turlari tanlanadi. Taklif etilayotgan mexanizmida bir nechta yo'nalishlar keltirilgan. Misol uchun dehqonchilik - terassalar, konturli palasalar va oddiy ekin maydonlari tashkil etish orqali, o'rmonzorlar eroziyaga qarshi barqarorlikni ta'minlash, ekologiyani yaxshilash maqsadida, bog'lar sug'oriladigan yoki sug'orilmaydigan hamda pichanzor sifatida foydalanish tavsiya etiladi.



6-rasm. Nishab yerlarda xo'jalikda ichki yer tuzish loyihasini ishlab chiqishning takomillashgan mexanizmi

Uchinchi bosqich yer tuzish loyihasining ilmiy asoslarini ishlab chiqish bosqichi. Bu bosqich loyiha funksional va meliorativ choralarini ishlab chiqishga qaratilgan. Hududni funksional rejalashtirish, eroziyaga qarshi choralar, huquqiy va iqtisodiy amaliyotlar kabi ketma-ketlikda bajariladi. Natija ilmiy asoslangan, iqtisodiy va ekologik jihatdan barqaror loyiha yechimlari ishlab chiqiladi.

To'rtinchi bosqich loyihani amaliyotga tatbiq etish, loyiha hujjatlari hamda ekspertizadan o'tkazish kabi bir necha amaliyotlarni o'z ichiga oladi. Natija loyiha huquqiy, texnik va ekologik jihatdan tasdiqlanib, amaliyotda qo'llanadi.

Ushbu mexanizm nishab yerlarda yer tuzish ishlarini ilmiy asosda tashkil etishning kompleks tizimi hisoblanadi. U quyidagi afzalliklarni beradi, eroziya xavfini kamaytiradi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini oshiradi, yer monitoringi va nazorat tizimini takomillashtiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, har bir qiyalik sinfiga mos ekin turlari va agrotexnik choralarini belgilash orqali yerlarning unumdorligi oshiriladi, yer degradatsiyasi xavfi kamaytiriladi, suv resurslaridan foydalanish samaradorligi ta'minlanadi. Bunday yondashuv, o'z navbatida, mahalliy iqtisodiy o'sishni, ijtimoiy barqarorlikni va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, nishab yerlar uchun takomillashtirilgan yer tuzish mexanizmini joriy etish zamonaviy qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlashning eng muhim vositalaridan biridir. Mazkur dissertatsiyada ishlab chiqilgan yondashuvlar va amaliy takliflar esa ilmiy-amaliy jihatdan yuqori ahamiyatga ega bo'lib, ularni boshqa tog'li va nishab hududlarda ham qo'llash mumkin.

XULOSALAR

1. DEM ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida Ohangaron tumani hududi uchun 1:500000 masshtabda raqamli balandlik modeli xaritasi shakllantirildi. O'rganishlar davomida hududning eng past nuqtasi dengiz sathidan 238 metr, eng yuqori nuqtasi esa 4381 metr balandlikda joylashganligi aniqlandi. Olingan natijalarga ko'ra, dengiz sathidan 2500 metrdan yuqorida joylashgan maydonlarda qishloq xo'jaligi ekinlarini ekish tavsiya etilmaydi.

2. Toshkent viloyatining yer usti qoplamini sun'iy yo'ldosh ma'lumotlari asosida tasniflanib, 9 ta asosiy sinfga ajratilgan holda tahlil qilindi. Bunda suv yuzalari 26799,73 gektar, daraxtzorlar 128513,37 gektar, o'simlik qoplamini 27910,11 gektar, lalmi yerlar 361,37 gektar, ekin maydonlari 631058,33 gektar, butazorlar 357983,97 gektar, bino va inshootlar egallagan hududlar 189555,46 gektar, ochiq yerlar 183784,23 gektar hamda qor va muzliklar 23394,66 gektarni tashkil etishi aniqlangan. Ushbu turdagi tahlillardan qishloq xo'jaligida foydalanishga yaroqli maydonlarni masofadan aniqlash uchun qo'llanilishi tavsiya etiladi.

3. Ohangaron tumanining murakkab relyefli maydonlarning nishabligining elektron xaritasi yaratildi. Natijada, 0–5° oralig'ida 80836.98 gektar, 5–10°

oralig'ida 35936.3 gektar, 10–30° oralig'ida 171507.91 gektar, 30–60° oralig'ida 29111.05 gektar hamda 60° < maydonlar 4.75 gektarni tashkil etishi aniqlandi.

4. Korrelatsiya koeffitsiyenti, o'rtacha kvadratik xatolik hamda determinatsiya koeffitsiyentlarini inobatga olgan holda to'rtta nishablik sinflari (0–5°, 5–10°, 10–30°, 30–60°) bo'yicha o'lchov xatoliklari aniqlandi. Nishabligi 0–5° bo'lgan birinchi sinfda taklif etilayotgan o'lchov xatoligi 1.01°, nishabligi 5–10° bo'lgan ikkinchi sinfda taklif etilayotgan o'lchov xatoligi 1.85°, nishabligi 10–30° bo'lgan uchinchi sinfda taklif etilayotgan o'lchov xatoligi 5.83°, nishabligi 30–60° bo'lgan to'rtinchi sinfda esa taklif etilayotgan o'lchov xatoligi 8.08° qilib olish tavsiya etiladi.

5. Murakkab relyefli maydonlarning nishabligini masofadan zondlash ma'lumotlari asosida aniqlashda ma'lumotlarni to'plash ↔ yuklab olish ↔ tahlil qilish (contour, slope, image classification, Extract by Mask funksiyalari orqali) ↔ dasturga o'lchov xatoliklarini kiritish ketma-ketlik mexanizimi bo'yicha aniqlash tavsiya etiladi.

6. Qishloq xo'jaligida murakkab relyefli hududlardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida yer resurslari bir qancha omillar (relyef nishabligi, yog'ingarchilik miqdori, yer usti qoplamasi va DEM ma'lumotlari) asosida kompleks tahlil qilinib, Ohangaron tumani hududida qishloq xo'jaligida foydalanish uchun mos 8970,2 gektar maydon mavjudligi ekanligi, ushbu maydonlarning asosiy 6783 gektari 10°–30° nishablik oralig'iga to'g'ri kelishi aniqlandi.

7. Ohangaron tumani yer usti qoplamini tahlil qilish hamda masofadan zondlash asosida 1,2° gacha aniqlikda o'lchash imkonini beruvchi "Perfect Slope" nomli interfaol veb-platforma ishlab chiqildi. Mazkur platforma qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish uchun mos bo'lgan yer maydonlarini aniqlash hamda nishablikni baholashda samarali axborot tizimi sifatida xizmat qiladi.

8. Masofadan zondlash ma'lumotlari asosida murakkab relyefli maydonlarni aniqlashning takomillashgan algoritimi, taklif etilayotgan o'lchov xatoliklari hamda "Perfect slope" veb platformasi ishlab chiqarish amaliyotidan tashqari Oliy o'quv yurtlarida o'quv-uslubiy hamda ilmiy-tadqiqotlar jarayonida "Yer tuzish", "Yer tuzishni loyihalash", "Yer monitoring", "Masofadan zondlash", kabi fanlardan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar o'tkazishda joriy qilish va undan keng foydalanish uchun tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ
СТЕПЕНИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА DSc.08/2025.27.12.Qx.02. ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
АГРАРНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАУЧНО-ПРОЕКТНЫЙ ИНСТИТУТ
«УЗГИПРОЗЕМ»**

МУСУРМАНКУЛОВА ШАХЛО АХМЕДОВНА

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ОЦЕНКИ УКЛОНА И
ЗЕМЛЕУСТРОЙСТВА НА СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ЗЕМЛЯХ
СЛОЖНОГО РЕЛЬЕФА НА ОСНОВЕ ГЕОИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

06.01.10 - «Землеустройство, кадастр и мониторинг земель»

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
СЕЛСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент-2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2026.1.PhD/Qx1940

Докторская диссертация выполнена в Государственном научно-проектном институте «Узгипрозем».

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tdau.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Инамов Азиз Низамович
доктора философии по технических науках, доцент

Официальные оппоненты:

Авезбасв Саъдулла
доктор экономических наук, профессор

Курвантоев Рахмонтой
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Головная организация:

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Защита диссертации состоится 21 августа 2026 года в 16⁰⁰ часов на заседании разового научного совета по присуждению ученой степени доктора философии (PhD) на основе Научного совета DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 при Ташкентском государственном аграрном университете. (Адрес: 111218, Ташкентская область, Кибрайский район, ул. Университетская, 2, Тел.: (+99871) 260-48-00; факс: (+99871) 260-38-60; e-mail: tuag_info@edu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного аграрного университета (зарегистрирована за № 556803). Адрес: 111218, Ташкентская область, Кибрайский район, улица Университетская, дом 2, Информационно-ресурсный центр Ташкентского государственного аграрного университета. Тел.: (+99871) 260-50-43.

Автореферат диссертации разослан 5 августа 2026 года.
(реестр протокола рассылки № 24 от 5 августа 2026 года)



С. Г. Бобоев
Председатель разового совета при
научном совете по присуждению
учёных степеней, д.б.н., профессор
А.А.Курбонов
секретарь разового совета
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
д.ф.с/х.н. (PhD), доцент
А. А. Иминов.
Председатель разового научного
семинара при разовом научном
совете, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. Общая площадь пастбищ в мире составляет 3,38 млрд га, а богарных земель 1,3 млрд га¹, часть этих площадей со сложным рельефом используется в качестве пастбищного животноводства, сенокосов, террасного земледелия, садоводства и богарных земель. Часть этих площадей со сложным рельефом используется для пастбищного животноводства, в качестве сенокосов, для террасного земледелия, садоводства и под богарные земли. Сегодня в таких развитых странах, как Китай, Япония, Вьетнам, Германия и Индия, землеустроительные работы на сельскохозяйственных угодьях со сложным рельефом проводятся с высокой точностью с помощью геоинформационных технологий. Приоритетными задачами признаются устойчивое управление и эффективное использование территорий со сложным рельефом, оптимизация сельскохозяйственных земель в таких районах, а также внедрение инновационных технологий в проекты землеустройства.

В мире такие проблемы, как эрозия, деградация, ограниченность водных ресурсов, засоление, урбанизация, до сих пор остаются актуальными во многих странах. Поэтому во всем мире проводятся большие исследования по эффективному планированию и проведению землеустроительных работ, определению уклона и рельефа с использованием высокоточных цифровых моделей высот (DEM), геоинформационных технологий, данных дистанционного зондирования, технологий искусственного интеллекта. Организация Объединенных Наций, Всемирный банк и другие международные организации поддерживают сельскохозяйственное развитие территорий со сложным рельефом, предотвращение водной и почвенной эрозии, обеспечение экологической устойчивости в управлении землей и внедрение систем мониторинга на этих территориях.

По состоянию на 1 января 2026 года общая площадь пастбищ и сенокосов в нашей республике составляет 21 255,3 тысячи гектаров, а богарных земель 768,3 тысячи гектаров, эти два вида площадей вместе занимают 49 процентов территории страны². В сельском хозяйстве площади со сложным рельефом в основном приходится на территорию пастбищ и богарных земель. Однако существует ряд трудностей с точки зрения их освоения, управления и эффективного использования. На сегодняшний день проблема целевого и рационального использования сельскохозяйственных угодий со сложным рельефом этого типа является важной для устойчивого развития сельскохозяйственной отрасли нашей страны. Проекты землеустройства таких площадей порождают множество организационных и технических проблем, что, в свою очередь, снижает эффективность использования сельскохозяйственных угодий. Эрозия и другие факторы окружающей среды приводят к усилению рисков. Эффективное использование и

¹ <https://ourworldindata.org/grapher/global-pasture>

² Сборник материалов Национального земельного отчёта о состоянии земельных ресурсов Республики Узбекистан по состоянию на 1 января 2026 года.

